



## YOSHLAR O'RTASIDA INSONPARVARLIK PRINSPINING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI

**Hajiyeva Zulxumor Sherifboy qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti ijtimoiy-gumanitar va san'at  
fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-  
bosqich talabasi

Zulhumorhajiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10077237>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil

Ma'qullandi: 04- November 2023 yil

Nashr qilindi: 07-November 2023 yil

### KEY WORDS

*Insonparvarlik, ta'lim-tarbiya,  
Yangi O'zbekiston, Harakatlar  
strategiyasi, Tarqqiqiyot  
strategiyasi, uzluksiz ta'lim*

### ABSTRACT

*Bugungi kunda talabalar o'rtasida o'zaro hurmat  
muhitini yaratish va ularning insonparvarlik  
g'oyalarini chuqur anglab yetishida bizning keng  
ko'lamli islohotlarmizning ahamiyati to'g'risida fikr  
yuritilgan. Mazkur maqolaning dolzarbligi bugungi  
kun uchun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan  
ma'naviy sohadagi islohotlardan ko'zlangan maqsad,  
o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom va  
baquvvat, axloqan pok va vijdonli, ruhan tetik va  
barkamol inson qilib voyaga yetkazishdir.*

Barchamizga ma'lumki, yoshlar bu bizning asosiy kuchimiz hisoblanadi. Bugungi kunda talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovordir. Chunki o'quvchilar ongiga insonparvarlik g'oyalarini singdirish, inson va jamiyat taraqqiyoti tushunchalarini hosil qilish, shaxsning ijtimoiy yo'nalish haqidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini, milliy istiqlol mafkurasini o'quvchilar ongiga yetkazishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Insonparvarlik –insonning qadri, erkinligi, baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning bercha tamoyillari yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha. Unga ko'ra, dunyoda eng qimmatli narsa insondir, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt –saodatiga xizmat qilishi lozim. Inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat kishilari haqida g'amxo'rlik insonparvarlikning asosiy masalasidir. Insonparvarlik g'oyalari uzoq tarixga ega. Ular baxt-saodatga va adolatga erishish orzulari tarzida qadimdan xalq og'zaki ijododa, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda o'z aksini topib kelmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Har bir mamlakatning rivojlanishi ta'lim-tarbiya natijasiga bog'liqligi barchaga ayon. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirmay turib, ma'naviy boy barkamol insonni voyaga yetkazish, tarbiyalash mushkuldir. Shuning uchun ham "2022 —2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilab bergan "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Harakatlar strategiyasidan —Taraqqiyot strategiyasi sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni

umummilliy harakatga aylantirish"[1] kundalik hayotning o'zi talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli ham mustaqillikning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va ma'rifiy, ma'naviy zamin qadriyatlarini mustahkamlash uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida bilim berishimiz hamda milliy ruhda tarbiyalashimiz, ularga xalqimiz urf-odatlarini, axloq-odob normalari, salomlashish odobi, insonparvarlik sifatlarini singdirib, ularni yetuk, komil inson qilib tarbiyalashimiz lozim. Yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularni barkamol, odobli shaxs qilib tarbiyalash muqaddas burchimizdir. Lekin insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish ko'p qirrali murakkab jarayondir. U kunlar, oylar va hatto, bir necha yillar mobaynida oliy maqsad yo'lida sabr-toqat, chidam va qat'iylik, irodali bo'lishni talab etadi. Hozirgi kunda bu murakkab jarayonni, ya'ni o'quvchilarda insonparvarlik fazilatlarini samarali shakllantirishda maktab, oila va mahalla hamkorligida amalga oshirilsa, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu borada to'xtalib, "Ta'lim sohasining yana bir muhim vazifasi – faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini qat'iy himoya qila oladigan, zamonaviy, keng fikrlaydigan yoshlar avlodini shakllantirishdan iborat. Shu sababli "Uzluksiz ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish tartibi va tamoyillari konsepsiyasi"ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish obyektiv zaruratga aylanmoqda, deb o'ylayman"[2]

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir.

## MUHOKAMA

Insonparvarlik prinsipi shuni bildiradiki, respublikamizdagi barcha fuqarolar umumiy asosda teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar. Konstitutsiyamiz insonning erkinligi va shaxsiy daxlsizligi huquqlarini qat'iy belgilabgina qolmay, uning sha'ni va obro'yini ham muhofaza etadi. Fuqarolar huquq va erkinliklarining ta'minlanishi mamlakat gullab-yashnashi- ga zamin yaratadi va demokratik davlat qurilishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklari butun tizimining poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro hamjamiyat e'tirof etgan insonparvarlik prinsiplariga ko'ra, xalqimiz farovonligini ta'minlash uchun xizmat qilmoqda, inson haq-huquqlari va erkinliklarining ustuvorligini ta'minlamoqda. Bu esa xalqaro huquqning umume'tirof etilgan, umumjahon miqyosida tan olingan barcha muhim qoidalar va prinsiplariga to'la mos keladi.

## NATIJALAR

So'nggi yillarda jarimalarni qo'llash, ularni undirishda insonparvarlik va odillik tamoyillariga rioya etgan holda bir qancha qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, amaliyotdagi yo'l harakati qoidalariga ko'ra, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksning tegishli moddalarida yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran 60 kundan kechiktirmay to'lashi belgilangan. Bu boradagi ishlarni yanada yengillshtirish maqsadida agar huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 70 foizini ixtiyoriy to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi belgilangan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga ma'muriy jarimalarni to'lashda qo'shimcha qulayliklar yaratish hamda sohada korrupsion omillarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 23-mart kuni qabul qilingan qarori bilan bu boradagi ishlar yana-da takomillashtirildi. Agar huquqbuzar unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 15 kun ichida jarima miqdorining 50 foizini, 30 kun ichida esa 70 foizini ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda, u jarimaning qolgan qismini to'lashdan ozod qilinishi belgilandi. Mazkur tartib endilikda sud qarorlariga asosan qo'llaniladigan jarimalarga nisbatan ham tatbiq etiladi. Bu qulayliklarni qonun hujjatlarida belgilash va tezroq amaliyotga joriy qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga bir hafta muddatda qonun loyihasini ishlab chiqish va Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish vazifasi yuklatildi. Bundan tashqari, fuqaro va tadbirkorlarni qiynayotgan muammolarni hal etish maqsadida Majburiy ijro byurosi tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy jarimaning miqdori ijro hujjatida undirilishi belgilangan summadan yuqori bo'lishi mumkin emasligi belgilandi. Endilikda Majburiy ijro byurosi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga hamda ma'muriy jazo qo'llashga faqat O'zbekistonning Bosh davlat ijrochisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining bosh davlat ijrochilari, ularning o'rinbosarlari, shuningdek, Majburiy ijro byurosining tuman (shahar) bo'limlari boshliqlari haqliligi qat'iy belgilandi. 2023-yil 1-sentyabrdan boshlab sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligining "Tezkor ma'lumotlar" yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladi.[3]

#### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, mamlakatimizda olib borilayotgan bunday o'zgarishlar yangi-yangi qonun va qarorlarning ishlab chiqilishi, insonlarning hayotida o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyot tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviyat, ma'rifat axloq keng quloq yoygan, ilm-fan taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-birlariga mehr-oqibatli, axloqli, odobli insonlar shakllanishi mumkin. O'quvchilarda adolatparvarlik sifatlarini shakllantirishda milliy ma'naviy merosimizdan, qomusimizdan, qadriyatlarimizdan, Prezidentimiz asarlaridan, urf-odatlarimizdan foydalanish o'rinlidir. Bir so'z bilan aytganda, imon va insof so'z va ish birligi, insonparvarlik yangi qurilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlaridan bo'lib qoldi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro xis etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda Sharqona va milliy axloq-odob ma'naviyatimiz normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini

shakllantirish muhim ahamiyatga egadir

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi“2022 —2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-son Farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son) <https://lex.uz/en/docs/5841063>
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi <https://president.uz/uz/lists/view/4660>
3. <http://anyflip.com/husmc/xudi>  
(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.03.2023-y., 07/23/99/0159-son)
- 4.Махмудова М. ИНСОННИНГ КЕЛАЖАГИНИ БЕЛГИЛАШДА КАСБ ТАНЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 4.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.

